

EKOLOGIK HUQUQBUZARLIKLAR UCHUN JAVOBGARLIKNING HUQUQIY VA IQTISODIY ASOSLARI: MILLIY TAJRIBA VA ISTIQBOLLAR

Xakimov Oybek Akramovich

TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik litseyi o'qituvchisi, yu.f.b.f.d.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik javobgarlik tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va namoyon bo'lish shakllari hamda O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni asosida tabiatni muhofaza qilishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda ekologik-ijtimoiy, ekologik-iqtisodiy va ekologik-huquqiy javobgarlik turlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik o'rganilib, atrof-muhitga zarar yetkazganlik uchun javobgarlikka tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Ekologiya, atrof-muhit, transport, maishiy chiqindi, huquqbuzarlik, ma'muriy javobgarlik, ekologik madaniyat, jamoat nazorati, tabiatni muhofaza qilish, kompensatsiya to'lovlari, ekologik ekspertiza, intizomiy javobgarlik, ma'muriy javobgarlik, jinoiy javobgarlik.*

Ekologik javobgarlik deganda axloqiy qadriyatlar, milliy va xalqaro huquq normalari tomonidan atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish maqsadida o'rnatilgan qoida va me'yorlarning biron-bir davlat organlari, yuridik yoki jismoniy shaxslar tomonidan buzilishi oqibatida ularga nisbatan qo'llaniladigan jazo choralari tushuniladi. Ekologik javobgarlik o'zining mazmuni va mohiyatiga ko'ra uchta asosiy ko'rinishda namoyon bo'ladi:

Ekologik-ijtimoiy javobgarlik kishilarning jamoatchilik va jamiyat oldidagi ma'naviy-axloqiy javobgarligini ifodalaydi.

Ekologik-iqtisodiy javobgarlik milliy yoki xalqaro huquq normalarida belgilangan qoida va me'yorlarni buzganlik uchun iqtisodiy ta'sir va javobgarlik choralari o'z ichiga oladi.

Ekologik-huquqiy javobgarlik milliy va xalqaro huquq normalarida belgilangan, ekologik munosabat qatnashchilari uchun majburiy kuchga ega bo'lgan qoida va me'yorlarni buzganlar uchun yuridik tusdagi jazo choralari qo'llanilishini nazarda tutadi.

Iqtisodiy javobgarlik mexanizmi sifatida amaliyotda asosan tabiiy resurslardan foydalanish va atrof-muhitni ifloslantirish uchun maxsus to'lovlar hamda kompensatsiyalar qo'llanilishi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni mamlakatimizda tabiiy muhit sharoitlarini saqlashning, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy asoslarini mustahkamlab beradi.

Ushbu Qonunning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unlikda rivojlanishini ta'minlash;

- Ekologiya tizimlari, tabiat komplekslari va ayrim obyektlar muhofaza qilinishini kafolatlash;

- Fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo'lish huquqini ta'minlash va huquqiy himoya qilish.

Qonunchilikka binoan, tabiatni muhofaza qilishning standartlari, normalari, qoidalari va boshqa normativ-texnik talablarini buzganlik uchun yuridik va jismoniy shaxslar javobgarlikka tortiladilar. Xususan, quyidagi holatlar qonun buzilishi deb baholanadi:

1. Obyektlardan foydalanishdagi qoidabuzarliklar: Korxonalar, inshootlar, transport vositalari va boshqa obyektlarni rejalashtirish, qurish, tiklash, ta'mirlash, ulardan foydalanish yoki ularni tugatish chog'ida, shuningdek ekologiya nuqtayi nazaridan xavfli mahsulotlarni chet ellarga chiqarish va chet ellardan olib kelishda hududning belgilab qo'yilgan ekologiya sig'imini, normalari va qoidalarini buzish.

2. Ekspertiza talablarini bajarmaslik: Tabiiy boyliklardan o'zboshimchalik bilan foydalanish hamda davlat ekologiya ekspertizasi talablarini bajarmaslik.

3. Moliyaviy majburiyatlardan bo'yin tovlash: Tabiiy resurslardan foydalanganlik uchun belgilangan to'lovni, shuningdek atrof-muhitni ifloslantirganlik va unga zararli ta'sir ko'rsatishning boshqa turlari uchun kompensatsiya to'lovlarini to'lashdan bosh tortish.

4. Rejalarni bajarmaslik: Tabiatni muhofaza qilish obyektlarini qurish rejalarini va tabiatni muhofaza qilishga doir boshqa tadbirlarni bajarmaslik.

5. Nazoratga to'sqinlik qilish: Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish sohasidagi davlat nazoratini amalga oshiruvchi mansabdor shaxslarning obyektlarga borishiga, ayrim shaxslar va tabiatni muhofaza qilish jamoat tashkilotlariga o'z huquq va vazifalarini ro'yobga chiqarishlariga to'sqinlik qilish.

6. Axborotni yashirish: Atrof tabiiy muhitning holati va uning resurslaridan foydalanish to'g'risida o'z vaqtida va to'g'ri axborot berishdan bosh tortish.

Ushbu qilmishlarda aybdor bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasining qonunlariga binoan intizomiy, ma'muriy, jinoiy va boshqa yo'sindagi yuridik javobgarlikka tortiladilar.

Chunonchi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining tegishli moddalarida (masalan, 193-196-moddalarida) ekologiya sohasidagi jinoiy qilmishlar uchun aniq jazo choralari va ularning subyektlari belgilab qo'yilgan.

Atrof-muhitni muhofaza qilish bugungi kunda global muammolardan biriga aylandi. O'zbekistonda ham ekologik madaniyatni yuksaltirish, xususan, yo'lovchilar va haydovchilar tomonidan transport vositalaridan chiqindi (sigaret qoldiqlari, plastik idishlar, qog'ozlar va b.) tashlash holatlariga qarshi kurashish dolzarb vazifadir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda avtotransport vositalarining soni keskin ortdi. Bu o'z navbatida yo'l bo'ylarida, shahar ko'chalarida va magistrallarda ekologik yuklamaning ko'payishiga olib keldi. Ko'p uchraydigan salbiy holatlardan biri — harakatlanayotgan yoki to'xtab turgan transport oynasidan turli xil maishiy

chiqindilarning (plastik idishlar, polietilen paketlar, sigaret qoldiqlari) tashlab ketilishidir.

Bu nafaqat hududning estetik ko'rinishini buzadi, balki jiddiy ekologik va xavfsizlik muammolarini keltirib chiqaradi. Masalan, tashlab ketilgan sigaret qoldig'i yo'l yoqasidagi quruq o'tlarning yonishiga va yirik yong'inlarga sabab bo'lishi mumkin.

Tadqiqotlar va ijtimoiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, transportdan chiqindi tashlash quyidagi asosiy omillar sababli sodir etiladi:

ekologik madaniyat va mas'uliyatning pastligi: ko'pchilik fuqarolarda "kichik bir dona chiqindi tabiatga zarar yetkazmaydi" degan noto'g'ri tushuncha shakllangan. Jamoat joylarini o'z uyi kabi asrash hissi yetishmaydi;

jazo muqarrarligining ta'minlanmaganligi: garchi qonunchilikda jazo choralari belgilangan bo'lsa-da, yo'llarda ushbu huquqbuzarlikni qayd etish va qoidabuzarni topish mexanizmi uzoq vaqt davomida yetarlicha raqamlashtirilmagan edi;

infratuzilmaning yaxshi rivojlanmaganligi: shahar ichidagi bekatlar, avtoturargohlar yoki xalqaro ahamiyatdagi yo'llarning chetlarida chiqindi qutilarining (urnalar) yetishmasligi fuqarolarga "qulay bahona" yaratadi;

ijtimoiy nazoratning sustligi: jamiyatda bunday holatlarga nisbatan befarqlik (loqaydlik) mavjud, bizning nazarimizda bunga asosiy sabab esa o'zbek mentalitetidir. Ko'cha-ko'yda kimdir mashinadan chiqindi tashlasa, unga nisbatan tanbeh berish yoki e'tiroz bildirish madaniyati ancha past.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 123-moddasiga asosan, transport vositalaridan chiqindi tashlash qonunan taqiqlangan va javobgarlikka sabab bo'ladi. 123-modda: Transport vositalaridan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish - Poyezdlarning vagonlari, avtotransport vositalari, shahar yo'lovchilar transportidan va suv transportidan axlat yoki boshqa narsalarni tashlab yuborish — bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu ijtimoiy-ekologik muammoni faqatgina jarimalar bilan hal etib bo'lmaydi. Bu yerda kompleks yondashuv talab etiladi:

1.Raqamlashtirish va jamoat nazoratini kuchaytirish:texnologik yechim.

Yo'llardagi kuzatuv kameralari (DAN kameralari) imkoniyatlaridan faqat tezlikni emas, chiqindi tashlash holatlarini ham aniqlashda foydalanish. Shuningdek, "Eko-nazorat" yoki maxsus botlar orqali videoregistratorga tushgan qoidabuzarliklarni yuborgan fuqarolarni moddiy rag'batlantirish tizimini kengaytirish.

2.Ta'lim vatarg'ibot ishlari:mafkuraviy bosqich.

Bog'cha va maktab yoshidanoq ekologik tarbiyani kuchaytirish. Televideniye, ijtimoiy tarmoqlar va ko'cha bannerlarida chiqindi tashlashning oqibatlarini (plastikning 400-500 yilda parchalanishi, hayvonlarga zararini) ko'rsatuvchi ta'sirchan ijtimoiy roliklarni ko'paytirish.

3.Xorijiy Tajribani Tadbiq Etish (Masalan, Singapur tajribasi):Huquqiy amaliyot.

Chiqindi tashlagan shaxslarga nafaqat moliyaviy jarima, balki jamoat ishlariga (ko'chalarni tozalash, daraxt ekish) majburiy jalb qilish kabi ma'muriy ta'sir choralarini joriy etish. Bu qoidabuzarda kuchliroq psixologik dars bo'ladi.

Transport vositalaridan chiqindi tashlash — bu shunchaki madaniyatsizlik emas, kelajak avlod oldidagi ekologik jinoyatdir. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun qonun ustuvorligi, zamonaviy nazorat texnologiyalari va eng muhimi — har bir fuqaroning shaxsiy daxldorlik hissi birlashishi lozim. Yo'llarimiz tozaligi jamiyatimiz madaniyatining ko'zgusidir.

Bu chora-tadbirlar kelajakda ekologik inqirozlarning oldini olishga va barqaror rivojlanish tamoyillarini qaror toptirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks. <https://lex.uz/docs/-97664>
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453#-265693>
4. O'zbekiston Respublikasining «Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida»gi Qonuni. <https://lex.uz/ru/docs/-107115>